



Namangan viloyatida
kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar



Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **23,4** mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,0** mingtaga kamaygan yoki **8,3 %** ga pasaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,3** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-martida **1,1** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,1 %** ga kam demakdir.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, suda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar 1- aprel holatida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



2024- yilning 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
24 488	Namangan viloyati	22 449
7 781	Namangan sh.	7 011
2 035	Chust	1 987
1 689	Uchqo'rg'on	1 627
1 790	Pop	1 569
1 565	To'raqo'rg'on	1 479
1 471	Chortoq	1 439
1 469	Namangan	1 420
1 601	Uychi	1 326
1 450	Kosonsoy	1 311
1 245	Norin	1 153
1 269	Yangiqo'rg'on	1 101
1 123	Mingbuloq	1 026

2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **22 249** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1 054** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Namangan shahrida **7 011** tani yoki jamiga nisbatan **31,2 %** ni tashkil etdi.

1- mart holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Mingbuloq	11,8
Uchqo'rg'on	10,7
Chortoq	10,7
Chust	10,4
Namangan sh.	10,1
Pop	9,1
Namangan	9,1
Norin	8,5
To'raqo'rg'on	8,1
Yangiqo'rg'on	7,7
Kosonsoy	7,3
Uychi	7,2

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- aprel holatiga, birlikda



2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **9,3** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **0,9** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **11,8** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **10,7** birlik, Chortoq tumanida **10,7** birlik, Chust tumanida **10,4** birlik va Namangan shahrida **10,1** birlikka yetdi.


* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Mingbuloq tumani
– 11,8 birlik.




O'rta ko'rsatkich

Namangan tumani
– 9,1 birlik.



Eng past ko'rsatkich

Uychi tumani
– 7,2 birlik.



Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Mingbuloq tumanida **11,8** birlik, Uchqo'rg'on tumanida **10,7** birlik, Chortoq tumanida **10,7** birlik, Chust tumanida **10,4** birlik, Namangan shahrida **10,1** birlik, Pop tumanida **9,1** birlik, Namangan tumani **9,1** birlik, Norin tumanida **8,5** birlik va To'raqo'rg'on tumanida **8,1** birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- aprel holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Namangan shahrida

10,1

Chortoq tumani

10,7

Mingbuloq tumani

11,8

Chust tumani

10,4

Uchqo'rg'on tumani

10,7

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

109	Mingbuloq	55
57	Kosonsoy	60
54	Namangan	41
70	Norin	72
100	Pop	86
78	To'raqo'rg'on	51
94	Uychi	52
109	Uchqo'rg'on	86
96	Chortoq	76
73	Chust	82
88	Yangiqo'rg'on	65
344	Namangan sh.	328

2024- yilning yanvar-martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Namangan sh.	31,1
Uchqo'rg'on	8,2
Pop	8,2
Chust	7,8
Chortoq	7,2
Norin	6,8
Yangiqo'rg'on	6,2
Kosonsoy	5,7
Mingbuloq	5,2
Uychi	4,9
To'raqo'rg'on	4,8
Namangan	3,9


2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Namangan shahri – **31,1** %, Uchqo'rg'on tumani – **8,2** %, Pop tumani – **8,2** %, Chust tumani – **7,8** %, Chortoq tumani – **7,2** %, Norin tumani – **6,8** %, Yangiqo'rg'on tumani – **6,2** % hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 398 ta, sanoatda 216 ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 101 ta yangidan tashkil etilgan.


Shahar va tumanlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida 328 ta, Uchqo'rg'on tumanida 86 ta, Pop tumanida 86 ta hamda Chust tumanida 82 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-marti davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2020-2024- yillarning yanvar-mart oylari davomida jami **7 081** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **2 632** (yoki **37,2** %) ta, sanoat sohasida – **1 732** (yoki **24,4** %) ta, xizmatlar sohasida – **1 339** (yoki **18,9** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **961** (yoki **13,6** %) ta va qurilish sohasida – **417** (yoki **5,9** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar - mart oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



■ 2023- y. ■ 2024- y.




■ 2023- y. ■ 2024- y.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-mart oylarida), % da

2024- yilning yanvar-martida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **64,4** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,1** punktga kamaygan.




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi tashishda **97,6** % ni, yo'lovchi aylanmasida **96,0** % ni, qishloq xo'jaligida **95,1** % ni, chakana savdoda **93,8** % ni, qurilishda **93,7** % ni, yuk tashishda **92,2** % ni, yuk aylanmasida **89,4** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Namangan sh.	1024,6
Chust	200,1
Namangan	180,9
Uychi	156,9
Kosonsoy	138,9
Chortoq	130,7
Mingbuloq	93,4
Norin	87,6
Pop	84,6
Yangiqo'rg'on	72,6
To'raqo'rg'on	62,5
Uchqo'rg'on	59,4

2024- yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 292,0** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (**1 024,6** mlrd. so'm), Chust (**200,1** mlrd. so'm), Namangan (**180,9** mlrd. so'm), Uychi (**156,9** mlrd. so'm), Kosonsoy (**138,9** mlrd. so'm) va Chortoq (**130,7** mlrd. so'm) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Uchqo'rg'on tumanida (**59,4** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, trln. so‘m

2024- yil yanvar-martida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **43,9 %** ni tashkil etdi.



2024- yilning yanvar-martida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq tumani (**100,0 %**), Yangiqo‘rg‘on tumani (**100,0 %**), Norin tumani (**99,8 %**), Pop tumani (**76,7 %**), Namangan tumani (**63,9 %**), Namangan shahri (**59,5 %**) va Uychi tumani (**57,9 %**) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Namangan sh.	454,1	96,6
Chortoq	115,9	78,9
Uychi	104,4	97,6
Yangiqo'rg'on	97,0	97,4
Kosonsoy	90,0	89,6
Pop	84,8	93,7
Uchqo'rg'on	82,4	97,8
Namangan	82,3	97,2
To'raqo'rg'on	77,7	95,9
Chust	69,5	92,3
Norin	67,7	86,2
Mingbuloq	44,0	95,6

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 369,9** mlrd. so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **93,7** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **108,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (**454,1** mlrd. so'm), Chortoq (**115,9** mlrd. so'm), Uychi (**104,4** mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (**97,0** mlrd. so'm) Kosonsoy (**90,0** mlrd. so'm), Pop (**84,8** mlrd. so'm), Uchqo'rg'on (**82,4** mlrd. so'm) va Namangan (**82,3** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda



2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **6 717,8** mlrd. so'mni yoki jami investitsiya hajmining **73,0 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **285,6 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Namangan shahri (**2 855,7** mlrd. so'm), Pop (**791,6** mlrd. so'm), Namangan (**577,9** mlrd. so'm), Chust (**473,2** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**371,5** mlrd. so'm), Uychi (**304,2** mlrd. so'm) hamda Chortoq (**282,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y. 2024-y.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




■ hajmi, mlrd. so'm ■ ulushi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **2 800,6** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **95,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **104,3** % ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, trln. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Namangan shahri (**459,9** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**277,0** mlrd. so'm), Chust (**260,5** mlrd. so'm), Uychi (**253,1** mlrd. so'm), Namangan (**250,5** mlrd. so'm), Yangiqo'rg'on (**223,2** mlrd. so'm) hamda Chorotq (**204,0** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Namangan sh.	459,9	84,6
To'raqo'rg'on	277,0	99,6
Chust	260,5	99,7
Uychi	253,1	97,8
Namangan	250,5	88,0
Yangiqo'rg'on	223,2	99,3
Chortoq	204,0	99,5
Pop	194,9	98,0
Norin	178,4	98,2
Uchqo'rg'on	175,5	98,0
Kosonsoy	175,4	97,4
Mingbuloq	148,3	98,7


hajmi, mlrd. so'mda
 ulushi, % da

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **3 991,6** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,8 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning tegishli davriga nisbatan **109,8 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

Namangan sh.	93,2	1853,8
Chust	93,9	328,5
To'raqo'rg'on	87,5	250,1
Pop	92,4	220,4
Uychi	98,9	205,2
Kosonsoy	98,6	184,4
Yangiqo'rg'on	95,7	179,8
Chortoq	95,6	175,1
Namangan	91,0	170,5
Norin	94,7	154,4
Uchqo'rg'on	97,4	153,5
Mingbuloq	97,2	115,8

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (**1 853,8** mlrd. so'm), Chust (**328,5** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**250,5** mlrd. so'm), Pop (**220,4** mlrd. so'm), Uychi (**205,2** mlrd. so'm), Kosonsoy (**184,4** mlrd. so'm) va Yangiqo'rg'on (**179,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2018 va 2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, trln. so'm




hajmi, mlrd. so'mda

ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda

Namangan sh.	871,6
Chust	286,0
Uychi	281,2
To'raqo'rg'on	241,0
Pop	236,1
Kosonsoy	232,3
Namangan	226,7
Yangiqo'rg'on	222,7
Chortoq	217,9
Uchqo'rg'on	194,3
Norin	186,2
Mingbuloq	168,2

2024- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 364,3** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **67,0 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar - mart oylariga nisbatan **117,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (**871,6** mlrd. so'm), Chust (**286,0** mlrd. so'm), Uychi (**281,2** mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (**241,0** mlrd. so'm), Pop (**236,1** mlrd. so'm), Kosonsoy (**232,3** mlrd. so'm) va Namangan (**226,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari (yanvar-mart oylarida)

1 391,0	Savdo xizmatlari	41,3
894,6	Transport xizmatlari	26,6
335,4	Shaxsiy xizmatlar	10,0
140,5	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	4,2
122,5	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,6
112,7	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4
112,7	Boshqa xizmatlar	3,4
76,1	Ijara xizmatlari	2,3
66,4	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	2,0
39,0	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,1
31,8	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	0,9
21,5	Moliyaviy xizmatlar	0,6
20,4	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	0,6

Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **41,3** % (**1 391,0** mlrd. so'm), transport xizmatlarida – **26,6** % (**894,6** mlrd. so'm), shaxsiy xizmatlarda – **10,0** % (**335,4** mlrd. so'm) hamda kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarda **4,2** % (**140,5** mlrd. so'm)ni tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida **0,6** % (**20,4** mlrd so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-mart oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **58,7** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **45,3** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiqo'rg'on	0,6	100,0
Chortoq	0,5	100,0
Norin	7,2	100,0
Mingbuloq	1,7	100,0
Pop	3,1	85,1
Namangan sh.	25,3	58,2
Uychi	6,6	57,8
Namangan	2,7	46,8
Kosonsoy	6,3	33,5
Chust	1,6	21,6
To'raqo'rg'on	2,7	11,1
Uchqo'rg'on	0,2	4,7

hajmi, mln. AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Yangiqo'rg'on, Chortoq, Norin, Mingbuloq tumanlarida – **100,0** %, Pop tumanida – **85,1** %, Namangan shahrida – **58,2** %, Uychi tumanida – **57,8** %, Namangan tumanida – **46,8** % ni tashkil qildi.

Eng past ko'rsatkich Uchqo'rg'on tumanida – **4,7** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-martida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **118,6** million AQSH dollarini yoki jami importning **63,8** % ini tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Mingbuloq, Norin, Chortoq Yangiqo'rg'on tumanlarida – **100,0%**, Pop tumanida – **96,4** %, Uychi tumanida – **92,8** %, tumanida – **92,6** %, Uchqo'rg'on tumanida – **83,8** % va Kosonsoy tumanida – **80,4** % ni tashkil etdi.


Mingbuloq	100,0
Norin	100,0
Chortoq	100,0
Yangiqo'rg'on	100,0
Pop	96,4
Uychi	92,8
Uchqo'rg'on	83,8
Kosonsoy	80,4
Namangan sh.	67,0
Chust	54,3
Namangan	47,0
To'raqo'rg'on	2,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2024- yilning yanvar-martida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,2 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **104,0 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **89,4 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,6 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2024- yilning yanvar-martida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,0 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,9 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




2024- yil I chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 126** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **328 (29,1 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **744 (66,1 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **54 (4,8 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,1 % (463 ta)**, xizmatlar sohasida – **26,5 % (298 ta)**, sanoatda – **19,7 % (222 ta)**, qurilishda – **6,6 % (74 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,1 % (69 ta)**, ni tashkil etdi.

2024- yil I chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024-yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

53	Mingbuloq	4,7
63	Kosonsoy	4,7
60	Namangan	5,3
62	Norin	5,5
91	Pop	8,1
81	To'raqo'rg'on	7,2
77	Uychi	6,9
45	Uchqo'rg'on	4,0
78	Chortoq	6,9
90	Chust	8,0
36	Yangiqo'rg'on	3,2
400	Namangan sh.	35,5


Soni, ta

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (400 ta), Pop (91 ta), Chust (90), To'raqo'rg'on (81 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning I choragida **211** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragiga kelib esa **328** taga yetgan yoki 2019- yilning I choragiga nisbatan **117** taga oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **646** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **744** ta yoki **98** taga oshgan.

O'z nabatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **172** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **54** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **118** taga kamaygan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I choragida **498** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragiga kelib esa, **399** taga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **99** taga kamaygan

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning I choragida **373** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragida **574** ta yoki **201** taga oshgan

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2019- yilning I choragida **20** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **44** tani tashkil etib, **24** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **20,5** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa, **29,1** % ga yetgan yoki 2019- yilga nisbatan **8,6** % oshgan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilda **62,8** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning I choragida **66,1** % yoki **3,3** % ga kamaygan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilda **16,7** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **4,8** % ga yetgan yoki **11,9** % ga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar I choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **55,9** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa, **39,2** % ga yetgan yoki 2019- yilning I choragida nisbatan **16,7** % kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning I choragida **41,9** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-martida **56,5** % yoki **14,7** % oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa, 2019- yilning I choragida **2,2** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning I choragiga kelib, bu ko'rsatkich **4,3** % yoki **2,1** % birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2024- yilning I choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **32,9** % ni, savdoda – **31,1** % ni, sanoatda – **25,2** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **76,8** % ni, qurilishda – **73,0** % ni, sanoatda – **70,3** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **5,4** % ni, savdoda – **4,8** % ni, sanoatda – **4,5** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **62,2** % ni, xizmatlar sohasida – **49,0** % ni, savdoda – **45,4** % ni va tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **59,4** % ni, sanoatda – **54,1** % ni, savdoda – **52,9** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **2,0** % ni, sanoatda – **1,8** % ni, savdoda – **1,7** % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	36,1	57,3	6,6
Band bo'lganlar soni	18,7	78,0	3,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	36,0	60,6	3,4
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	32,4	63,6	4,0
Raqobat muhiti	41,2	55,7	3,1

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	42,3	55,4	2,3
Band bo'lganlar soni	23,2	75,7	1,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	37,3	60,9	1,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	34,9	62,1	3,0
Raqobat muhiti	41,0	56,6	2,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning I choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli